

O'ZBEKISTONDA KOMPAZITORLIK IJODIYOTINING RIVOJLANISH OMILLARI

Orzimatov Husanboy Bahromjon o'g'li

Namangan davlat universiteti musiqa ta'lim va madaniyat
fakulteti 3-kurs talabasi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7672418>


Anotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonga kompazitorlik ijodiyotining kirib kelishi, rivojlanishi, taraqqiyoti yoritib berilgan. Hamda kompazitorlik ijodiyoti to'g'risida musiqashunoslar, bastakor va ziyolilarning fikr muloxazalari bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Kampozitor, sonata, konsert, simfoniya, poema, opera.

Musiqa olamiga nazar solgan odam, uning bepayon ummon ekaniga guvoh bo'ladi. Bu ummonning irmoqlarining rangbarangligi va bu rangbaranglikning tarixan shakllanganligi, rivojlanganligi qadimiy qo'lyozmalardan bizga malumdur. Musiqa sohasini azaliy qadriyatlardan zamonaviy mezonlariga bo'lgan jarayonlarni faqatgina ohanglarda muhirlangan betakror asarlardangina anglash mumkin. Musiqa san'atining azaliy an'analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topganligi hamda butun bashariyatga ijodiy ta'sir etganligi, fanda o'z isbotini topgan. Shuningdek, g'arb madaniyatini o'ziga xos kamol topganligini esa, hozirgi zamon musiqa san'ati ko'lamida ilg'am olishimiz mumkin. Natijada, musiqa san'ati ijodiyotida G'arb musiqa san'atiga intilish, o'xshatish, madaniyatiga ergashish kabi munosabatlar yuzaga keldi. Har bir xalq o'zining milliy musiqa san'ati bilan birgalikda, ularga asoslangan g'arbonsa musiqa ijodiyoti shakllantirdilar. O'zbek xalq musiqa san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada shakllangan xalq va mumtoz musiqa merosiga ega. XX-asrga kelib, bu ijtimoiy hayot so'qmoqlarida va musiqa madaniyatimizda yangi yo'nalish joriy etila boshlandi. Qayd etish lozimki, xar qanday musiqa xalq madaniyati rivojiga xizmat qilsa, albatta amaliyotda o'z ijobatini topadi.[2]

O'tgan asrning boshlarida O'zbekistonda ham yevropacha tafakkur oqimining tasiri sezila boshlandi va zamonaviy musiqaning "kompazitor"lik ijodiyoti ko'rinishida amalyotda qaror topa boshlandi. Bu davrda kompazitorlik ijodiyoti O'zbekistonda yangi oqim edi va bu oqim vujudga kelishi natijasida yevropaning klassik musiqiy shakllari Konsert, sanota, suita, simfoniya balet, opera kabi yirik musiqiy asarlar yaratish imkoniyati vujudga keldi. SHu asnoda O'zbekiston radiosi va O'zbekiston Kompazitorlar uyushmasi tashkil tolib o'z faoliyatini boshladilar. Ayniqsa kompazitorlarning yangi avlodi: To'xtasin Jalilov, Muhtorjon Muhtazayev, Muhammadjon Mirzayev, Imomjon Ikromov, Nabijon Hasanov,

Fahriddin Sodiqov kabi nomoyandalar o'zining yangi uslubdagi yaratgan asarlari bilan bu soxa rivojiga ulkan xissa qo'shdilar. 1940-yil va undan keyingi davrlarda musiqa sohasini keskin rivojlanish davri bo'ldi. 40-yillarda o'zbek bastakor va kompazitorlarining shakllanishi va ularning kompazitorlik ijodida mustaqil asarlar yaratishning ilk davriga aylandi. 30-yillarda ko'proq milliy kompazitorlarning rus kompazitorlar bilan ijodi bilan harakterlansa, 40-yillarda bu jarayonning mustaqil faoliyati boshlanganini ko'ramiz. Muhtor Ashrafiy, Sulaymon Yudakov, Mutal Burhonov, Doni Zokirov, kabi milliy kompazitorlar yetishib chiqdi. Shu asnoda Muhtor Ashrafiyning "Bo'ron" operasi birinchilardan bo'lib sahna yuzini ko'rganligi O'zbekiston musiqali teatr hayotida katta voqea bo'ldi. Aynan, "Bo'ron" operasining premerasidan so'ng musiqiy dramatik teatr O'zbekiston davlat opera va balet teatri nomini oldi. "Bo'ron" operasida o'zbek xalqining chorizimga qarshi 1916-yilgi qo'zg'oloni davri mohirlik bilan sahnalashtirilgan. Kompazitorlar maskur asarda dramatik spektaklni musiqalashtirish uslubiga barham berdilar. Bu asarda musiqa jo'r bo'libgina qolmay, balki tashkiliy ahamiyat kasb etadi. Ariyalar oddiygina ijro etiladigan qo'shiq sifatida emas, qahramon obrazini yorituvchi vosita bo'lib keladi. 1958-yildan boshlab yangi teatr mavsumi boshlandi. O'zbek kompazitorlari yangi opera asarlari sanalashtira boshladilar. Bular M.Ashrafiyning "Dilorom"(1958), T.Sodiqov, Yu.Rajabiy, B.Zeydman va D.Zokirovlarning "Zaynab va Omon"(1958), S.Yudakovning "Maysaraning ishi"(1959), S.Boboyevning "Hamza", (1961), M.Ashrafiyning "Shoir qalbi"(1962), M.Yusupovning "Xorazim qo'shig'i", R.Xamroyevning "Zulmatdan Ziyo"(1966) operalaridir.[1]. Shuningdek Kompazitorlik ijodining yana bir serko'lam yo'nalishi vokal simfonik (xo'r va simfonik orkestr uchun mo'ljallangan) janri vujudga keldi. Ya'ni Kontata, Suita, Oratoriya kabi musiqa san'atining yirik janrlari milliy kompazitorlarimiz tomonidan yaratila boshlandi. Ma'lumki vakal-simfonik ijodiyotining shakllanishi M.Burhonov, S.Yudakov, M.Leviyev, I.Akbarov, M.Ashrafiy kabi atoqli kompazitorlarning ijodiy faoliyati bilan bo'g'liq. Ularning ko'p yillik tajribalari natijalarida ko'p ovozli xor madaniyati qisqa vaqt ichida rivojlandi va ijrochilik amalyotida qollana boshlandi. Misol qilib, M.Ashrafiyning xor va orkestr uchun "Ulug' komandir" qo'shig'i, T.Jalilovning "Zafar", "Aziz Vatan", Yu.Rajabiyning "Jon fido", S.Yudakovning "Jonga jon, qonga qon" xorlarini 1942-yil O'zbekistonda yaratilgan birinchi kontata, G.Mushelning "Farhod qurilishi" ko'rsatish mumkin. Shuningdek cholg'u musiqasida ham yirik janrlar hisoblangan simfoniya, uvertyura, konsert, simfonik suita, simfonik poema, rapsodiya va fantaziya kabi yirik janrlar shakllana boshlandi. O'zbekistonda



1920-yillarda V.Uspeniskiy ilk simfonik asarni yaratdi.U "O'rta osiyo xalqlaridan to'rt kuy" deb nomlangan asarini simfonik orkestr uchun qayta ishladi. Shuningdek 30-yillar oxirida o'zbek xalq musiqa ijodiyoti asosida R.Glerning "Tantanali uvertura" va "Farg'ona bayrami" uverturasi yuzaga keldi.[2].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda ham kompazitorlik ijodi rivojlanishda davom etmoqda hamda bu sohada qator kompazitorlar faoliyat olib bormoqdalar.Bulardan Mustafo Bafoyev, Dilorom Omonillayeva, Rustam Abdullayev, Nadim Nirxo'jayev, Mehroj Muhtorov, Abdumajid Qoraboyev kabi kompazitorlar soha rivojiga sezilarli xissa qo'shib kelmoqdalar.Albatta milliy kompazitorlarimizning milliy ohanglarimizda yevropa talablariga mos bo'lgan yirik janrdagi asarlarni yaratilishi sohaga bo'lgan etiborning samarasi ekanligidan dalolat beradi desak adashmagan bo'lamiz.

Faydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Yo'ldasheva, N.Rahmatov. O'zbek musiqa adabiyoti. Iqtisod-Moliya, Toshkent, 2016.
2. A.Jabborov,S.Begmatov,M.Azamova.O'zbek musiqa tarixi.Toshkent-2018.

